



XORAZMIY VA UNING “MUHABBATNOMA” ASARI

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy - gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalish

Mirzamahmudova Rahnamo Anvarjon qizi

Email:islombektoyirjonov@gmail.com

Tel: +998 94 579 11 01

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmiy qalamiga mansub “Muhabbatnoma” asarining adabiy – estetik xususiyatlari, janr tabiati, va o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyoti dagi o'rni tahlil etiladi. Asar epistoylar lirik janrda yozilgan bo'lib, unda shoirning sof muhabbat, sadoqat, vafodorlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga munosabatli poetic shaklda ifoda topgan. “Muhabbatnoma” o'zining falsafiy teranligi, badiiy obrazlilik darajasi, til va uslub jihatidan o'z davrining ilg'or yodgorliklaridan biti sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot davomida asarning poetik strukturasiga, obrazlar tizimiga hamda uning o'zbek adabiy tilining shakllanishiga qo'shgan hissasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: xorazmiy, Muhabbatnoma, noma, Latofatnoma, Dahnoma, Taashshuqnoma, Haqiqatnoma, Sadoqatnoma.

Kirish: Xorazmiyning “Muhabbatnoma” si o'zbek mumtoz adabiyotidagi noma janrining ilk yorqin namunasi sanaladi. Albatta “Muhabbatnoma” faqat nomalar yig'indisi emas, unda g'azal, qit'a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos asarlar ham mavjud. Lekin asardagi o'n bir noma asar tuzilishining bosh xususiyatini belgilaydi. Shoir shundan kelib chiqib “noma” so'zini asar nomiga ham chiqazgan. Xorazmiyning nomanavislik an'anasini adabiyotimizda Xo'jandiy “Latofatnoma” si, Yusuf Amiriy “Dahnoma” si, Said Ahmad “Taashshuqnoma” si, Sayyid Qosimiy “Haqiqatnoma” si va “Sadoqatnoma” si billan davom ettirdi.



“ Muhabbatnoma”da shoirning o’zi qayd etishicha ,Oltin O’rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabek forsiy tilde she’rlar yozib , mashhur bo’lgan Xorazmiydan: “ Bu qish mening yonimda yurib , turkiy tilda – bir kitob yozsang “ deb iltimos qiladi:

Ko’ngul bahrinda ko’p gavharlaring bor,

Ochunda porsiy daftarlaring bor.

Muhabbat nardini ko’lardin uttung,

Shakartek til bila olamni tuttung.

Tilarmenkim, bizning til birla paydo

Kitobe aylasang bu qish qotimdo,-

Kim ush eldek kechar ayyomi foni,

Jahonda qolsa bizdin armug’one.

“ Muhabbatnoma “ shu tariqa milodiy 1353 – yili dunyoga kelgan. Demak,shoir tojik tilidagi daftarlari , ya’ni to’plamlari “shakartek til “ bilan el orasida ma’lum-u mashhur bo’lgan.

Muhabbatnoma haqida

Asarda zullisonaynlik qoidasiga oxirigacha amal qilingan .Ya’ni 11 nomadan ikkitasi to’rtinchi, sakkizinchi nomalar ,asar tuzilishiga asosan ulardan keyingi masnaviy ,shuningdek dastlabki g’azal forsiy tilda bitilgan.Shoir maxsus ravishda shunday ish tutgan.

Bu xon uzra saloyi oma qildm ,

Muhabbatnomani o’n noma qildm.

Qiloyin ikki bobin porsiy ham ,

Kim atlas to’n yaroshur bo’lsa ma’lum .

Mazmuni :





“ Bu dasturxon uzra umumiy da’va’t qildm,

Muhabbatnomani o’n noma qildm.

Ikki bobini forsiy tilda bitayinki ,

Atlas to’n ham har xil rangda bo’lsa yarashadi.

Xorazmiy g’azal qit’a va fardning XIV asr o’zbek adabiyoti uchun dastlabki namunalarini ijod qildi. Bu asarlar ana shu jihati bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Asar tilida ayrim yulduz va sayyora nomlari, chunonchi forsiy Zuhra (venera , Cho’lpon) arabiy Atorud Merkuri kabilar ifodalangan . Ma’lumki mumtoz adabiyotda Zuhra yulduzini shoirlar osmon sozandasi , cholg’uchisi sifatida tasvirlaganlar. Artoud sayyorasi esa shoirlar homiysi hisoblangan. “ Muhabbatnoma “ asarida ham ushbu yulduz va sayyora nomlari mazkur majoziy ma’nolarda qo’llangan.

Misool:

Bu Xorazmiy “ MUhabbatnoma” sini

Atorud ko’rdi , soldi xomasini.

Shoir aytmoqchi, men ushbu asarni boshlaganimda , shoirlar homiysi hisoblangan Atorud “ xomasi” , ya’ni qalamni yozishga tayyorlab , shay qilib qo’ydi.

Xulosa

Mazkur asar faqat badiiy ruhda yozilgan asargina bo’lmay balki , turkiy xalqlarning urf- odatlari , hayot tarzi, ularning tarixi ijtimoiy hayoti haqida ham ma’lumot beruvchi asardir. Bu asar orqali biz qadimdan o’zbek tili , umuman olganda turkiy til naqadar boy va xilma – xil ma’nolarga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin . Ushbu asar O’rta asrlar hukmdorlar hujjatlari, qarorlar hamda qo’lyozmalari qanday shaklda yozilganligi haqida ma’lumot beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.

2Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.

3Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.

4Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.

5O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.

6Kobilova, Z. B. (2021). Amiri and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.

7Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.

8Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.

9Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.



10Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,

11Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,

12Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.

13Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.

14Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.